

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI AJINIYOZ NOMIDAGI
NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



Pedagogika fakulteti

«Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» kafedrası

5110800-«Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» ta’lim yo‘nalishi

4^y kurs talabasi

OLLOMBERGANOVA MAHFUZANING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Maktab o`quvchilariga milliy buyumlardan tuzilgan natyurmortni rangtasvirda ishlashni o`rgatish

Talaba:

M.Ollomberganova

Ilmiy rahbar:

dots. J.Darmenov

Kafedra mudiri:

dots. J.Darmenov

Nukus - 2019

**MAVZU: MAKTAB O‘QUVCHILARIGA MILLIY BUYUMLARDAN
TUZILGAN NATYURMORTNI RANGTASVIRDA ISHLASHNI
O‘RGATISH**

MUNDAR I J A :

Kirish.....3

I BOB.

Natyurmort haqida umumiy ma`lumot..... 7

II BOB.

Narsaga qarab rasm chizish metodikasi haqida qisqacha ma`lumot14

III BOB.

Milliy buyumlardan tuzilgan natyurmort tasvirlash

a) milliy natyurmort haqida31

b) Milliy buyumlardan tuzilgan natyurmort ishlashning bosqichlari..... 34

Xulosa.....38

Foydalanilgan adabiyotlar..... 40

Rangli illyustratsiyalar41

KIRISH

Mamlakatimiz o`zining boy badiiy merosi bilan jahon sanati va madaniyati rivojiga katta hissa qo`shgan qadimiy tsivilizatsiya o`chog`i sifatida milliy badiiy ananalarning o`ziga xosligini saqlab kelayotgani dunyoning etakchi sanat mutaxassislari tomonidan etirof etilgan.

Bugungi kunda zamonaviy o`zbek tasviriy sanati ko`plab yosh istedod egalari kirib kelayotgani, turli yo`nalishlarda faoliyat ko`rsatayotgan ijodkorlar, xususan, rassom va haykaltaroshlar, xalq ustalari ijodida yangicha mazmun va shakl, jahon sanat maydonida munosib o`rin egallashga intilish tendentsiyalari ko`zga tashlanayotganini ijobiy baholash lozim.

Shu bilan birga, takidlash lozimki, hozirgi vaqtda tasviriy va amaliy sanat hamda dizayn sohasini rivojlantirish bo`yicha amalga oshirilayotgan ishlar talab darajasida emasligi, sohaga doir normativ-huquqiy hamda moddiy-texnik bazaning mukammal emasligi, malakali kadrlar etishmasligi bu boradagi ishlarning samarasiga salbiy tasir etmoqda.

O`zbek tasviriy va amaliy sanati hamda dizayn yo`nalishlarini yanada rivojlantirish, xalqimizning ushbu nafis sanatlarga bo`lgan estetik ehtiyojini qondirish, keng yo`nalishda faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning ijodiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ularga shart-sharoit yaratish, badiiy salohiyatini oshirish, zamon talablariga mos badiiy talim tizimini keng yo`lga qo`yish hamda rivojlantirish va takomillashtirish bo`yicha bir qancha qarorlar qabul qilindi [1].

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, zamon talablariga mos keladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni tashkil qilish, umum ta`lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini oliy ma`lumotli pedagogik kadrlar bilan ta`minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2001 yil 12-iyun`da o`rta maxsus ma`lumotga va tegishli ta`lim turib bo`yicha kamida uch yillik pedagogik ish stajiga ega bo`lgan o`qituvchi kadrlarni test sinovlari orqali qabil qilish uchun maxsus sirtqi bo`limlar ochish to`g`risida qaror qabul qildi. Ushbu qarorga binoan 2001-2002 o`quv yilidan boshlab

«Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi» ixtisosligi bo'yicha ham pedagogik fanlardan dastur, mashg'ulot ishlamlari hamda o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda.

Bitiruv ishini mavzusini tanlashimda, uning mazmun-mohiyati, hozirgi kundagi ahamiyati va aktualligi, estetik tarbiya ishlarida va tasviriy san`at darslarida qo'llanma sifatida foydalana bo'ladigan aktual vazifalar echimini topishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim. Shu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalarni ishlab chiqdim.

1. Tanlangan mavzu bo'yicha ma'lumotlar izlash va o'rganish
2. O'rganib chiqqan ma'lumotlarni tahlil qilish
3. Tanlangan mavzu-milliy natyurmort ishlash bo'yicha bir qator tavsiyalar berib o'tish va tajribada qo'llanish

Mazkur bitiruv ishini o'quv qo'llanma sifatida tasviriy san`atning asoslaridan biri bo'lmish «natyurmort» ishlash bo'limini qamrab oladi. Bu qo'llanmadan natyurmort ishlash san`atining nazariy asoslari, usta rassom ijodkorning qimmatini maslahatlari joy olgan bo'lib, undan maxsus sirtqi bo'lim talabalari bilan bir qatorda bakalaviyaturada tahsil olayotgan kunduzgi, sirtqi bo'lim talabalari va barcha rassom ijodkorlar, havaskor yoshlar foydalanishlari mumkin.

Mavzuning dolzarbligi:

Bitiruv malakaviy ishi «Maktab o'quvchilariga milliy buyumlardan tuzilgan natyurmortni rangtasvirda ishlashni o'rgatish» mavzusi bo'yicha bajarilgan. Bitiruv ishini mavzusini tanlashimda, uning mazmun-mohiyati, hozirgi kundagi ahamiyati va dolzarbligi, estetik tarbiya ishlarida va tasviriy san`at darslarida qo'llanma sifatida foydalana bo'ladigan aktual vazifalar echimini topishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Ishning maqsad va vazifalari:

1. Tanlangan mavzu bo'yicha ma'lumotlar izlash va o'rganish
2. O'rganib chiqqan ma'lumotlarni tahlil qilish
3. Tanlangan mavzu-milliy natyurmort ishlash bo'yicha bir kator tavsiyalar berib o'tish va tajribada qo'llanish

Tadqiqot obekti va predmeti:

Tadqiqot ob'ekti Nukus shaharidagi xalq ta'lim bo'limiga qarashli №38-sonli maktabi

Predmeti- maktablar, kasb-hunar kolleji tasviriy san'at, rasm darsi

Tadqiqot uslubiyati va uslublari:

Test, kuzatish, so'rovnoma, anketa va har xil metodikalardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jixatdan yangilik darajasi: Bakalavr bitiruv malakaviy ishi referativ, metodik va amaliy xarakterga ega. O'quvchilar bilan ishlashda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston rassomlarining ish namunalaridan foydalanish yaxshi natija beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu:

Mazkur bitiruv ishini o'quv qo'llanma sifatida tasviriy san'atning asoslaridan biri bo'lmish «natyurmort» ishlash bo'limini qamrab oladi. Bu qo'llanmadan natyurmort ishlash san'atining nazariy asoslari, usta rassom ijodkorning qimmatini maslahatlari joy olgan bo'lib, undan maxsus sirtqi bo'lim talabalari bilan bir qatorda bakalaviyaturada tahsil olayotgan kunduzgi, maxsus sirtqi bo'lim talabalari va barcha rassom ijodkorlar, havaskor yoshlar foydalanishlari mumkin.

Ish tuzilishi va tarkibi:

Bakalavr bitiruv mutaxassislik ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va rangli illyustratsiyalardan tashkil topgan.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari:

Bakalavr malakaviy ishimiz davomida ishimizning maqsadi va vazifalari, shuningdek uning amaliy zarurligini ko'rsatishga harakat qildik va qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya kasb-hunar kollejlari o'quvchilarga narsaga qarab tasvir ishlashni o'rgatish san'atni sevishga o'rgatishda bu ishimiz yaxshi natija berganligiga erishdik.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi:

O'quvchilarning tasviriy san'atga, amaliy san'atga bo'lgan munosabatini yaxshilash, mehr uyg'otish, amaliy san'at an'alarini rivojlantirishga o'rgatish, pedagogning asosiy vazifasi bo'lib qoladi.

I BOB. NATYURMORT HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Qadim dunyodagi oddiy hayot kechiruvchi odamlarda ularni qurshovidagi atrofda turgan tabiat, xar xil hodisalar, odamlar, xayvonlar, hattoki ularni o'ylantiradigan xar xil sezgilarni xam o'zlaricha toshlarga, g'orlar devorlariga tirnab yoki o'yib (o'tkir narsalar, tabiiy jismlar bo'laklari) yoki bo'lmasa tabiiy bo'yoqlar bilan tasvirlashga oid ko'pgina nusxalar bizning davrimizga etib kelgan.

Shunga ko'ra biz, agar ilmiy jihatdan tasviriy san'atga jamlasak, uni tahlil qiladigan bo'lsak unda tasviriy san'atning har xil turlarga va janrlarga bo'linganining guvohi bo'lamiz. Ular o'z navbatida yana boshqa turlarga va metodik usullarga bo'linib ketadi. Umuman tasviriy san'atni rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, teatr dekoratsiyasi, arxitektura va dekorativ hunarlarga turlariga bo'lib chikamiz va shu jihatdan kelib chiqib ularning o'zlariga tegishli bo'lgan janrlarga duch kelamiz. Ularga asosan portret, natyurmort, manzara (peyzaj), turmushsh-hayotiy janr, batal (urush ko'rinishlari, qurol-aslaha, asosiy mavzusi urush maydoni, undagi qahramonlar obrazlari va hokazo) janri, marinistik janr, ya'ni dengiz ko'rinishlarini tasvirlashga oid, animal janr-qushlar, hayvonlar, hashoratlar va hokazolarni tasvirlash bo'lib bo'linadi.

Mana shularga asoslana turib xayotimizda ko'p uchraydigan, tasviriy san'atda keng uchraydigan va asosiy janralardan hisoblangan- natyurmort janriga e'tiborimizni qaratamiz. Uning paydo bo'lishi, rivojlanishi, ishlash usullari, ranglarning ishlatilishi haqida ma'lumot berib o'tishni afzal ko'rdik. Natyurmort haqida bir qator rassomlar, san'atshunoslar, olimlar fikr bildirishgan. Ularning izlanishlari, tahlillari, kuzatuvlari natijasida ko'pgina qo'llanmalar, kitoblar, maqolalar mavjud.

Natyurmort so'zi-frantsuz tilidan kelib chiqqan, o'zbek tiliga tarjima qilganda – «jonsiz tabiat» ma'nosini anglatadi. Ushbu janrda ishlagan rassomlar mevalar, sabzovatlar, gullar, hal xil shakldagi buyumlar, kitoblar, uy jihozlari, idishlar, jonsiz hayvonlar, qushlar, baliqlar, qo'g'irochoqlar yoki ba'zi holatlarda gips haykalchalar ishtirokida tuzilgan ko'rinishlarni tasvirlashadi. Mazkur janr

XVII- asrda Gollandiyada va Ispaniyada payda bo'lgan. O'sha vaqtga qadar natyurmort kartinaning bir bo'lagi yoki biror-bir elementi hisoblangan.

Masalan: bunday vaziyatni Venetsiyalik rassomlarning asarlarida ko'rsa bo'ladi. Natyurmort janri alohida janr hisoblanib, u haqida mustaqil fikr bildirilsa va uni alohida, o'ziga xos tasviriy san'at janri sifatida ko'rib chiqish kerak. Chunki natyurmort janrida ishlashning o'ziga xos qonun va qoidalari mavjud. Natyurmort ishlash jarayonida ushba qonuniyatlarga ko'ra ish olib borish zarur.

Tasviriy san'at tarixiga nazar tashlaganimizda natyurmortning o'z o'rnini, u haqda har xil fikrlarni, har xil ko'rinishlarni ko'ramiz. Natyurmort ikki xil ko'rinishga ega bo'ladi.

Birinchi turiga natyurmortdagi tasvirlangan buyumlar shaxsan o'zlari haqida emas, balki ular tegishli bo'lgan odamlar, ya'ni ularning egalari haqida ma'lumot berishadi.

Boshqacha qilib aytganda ularning ko'rinishlari odamlarning xulq-atvori haqida «gapirib» berishadi. Kartinada odamlar tasvirlanmasa ham, o'sha odamlarning yaqin joyda ekanligini, bir fursatga chiqib ketgan-u, hozir qaytib keladiganga o'xshaydi. Narsalar shunday qilib tuzilganki, go'yo hayotdagi ko'rinishlarday, ya'ni kundalik turmushimizda tez-tez uchrab turadigan holatlarda tasvirlangan. Aynan shunday tarixiy obraz beradigan klassik obrazli natyurmortlar Gollandiyalik rassomlar yaratgan asarlar namunalarida uchratish mumkin.

Natyurmortning boshqa turida natyurmort tuzilgan buyumlar ko'pincha qanaqadir baholi dunyo sifatida tasvirlanadi. Bu vaziyatda har bir buyum shaxsan o'zi haqida ma'lumot beradi. Shu yo'sinda ular o'zlarining ko'lami, shakli, o'lchovlari, ranglari, materialligini ko'rsatishadi va o'ziga xos go'zalligi bilan o'ziga tortadi. Ya'ni bu yerda buyumlar, narsalar o'zlarining «hayoti» haqida so'z yuritiladi.

Shunday natyurmortlar juda keng tarqalgan bo'lib, bir xil natyurmortlar XVII asrdan boshlab tanish bo'lgan klassik asarlarda, ayniqsa Ispan rassomi Surbaran yaratgan bebaho asarlarda ko'proq uchrashadi. O'sha davrda yashagan Gollandiyaliklar har xil buyumlar, idish-tovoq, gullar, meva-sabzavotlar aks

ettirilgan kartinalarni «Tinch hayot» deb atashgan va bizning fikrimizcha, mazkur nam natyurmort janrida chizilgan kartinalar uchun juda mos tushadi. Sababi, natyurmort kartinalarning mazmuni va ma'no mohiyatining poetikalik xarakterini rassomlar anchain yuksak darajali qilib etkazishadi.

Ushbu mazmunda tasvirlangan chiroyli, rang-barang, har xil ko'rinishdagi matolar, - (ularning qalin yupqa, ipak yoki xarirligini bo'yoqlar, ranglar orqali juda chiroyli tasvirlashga muvaffaq bo'lishgan), gullar, hal xil shakldagi idishlar, musiqa asboblari, mevalar, odamlar go'yoki juda sokin, tinch hayotda yashab yurishganga o'xshatib tasvirlangan. Shuning uchun ham xudi shunday «Sokin (tinch) hayot» deb atab ketishgan.

Tasviriy san'atning boshqa janrlari singari natyurmort janri ham mavzulik (tematik) bo'lib ham bajariladi. Ayrim natyurmortlar platonik tuyg'ularni ko'rsata olgan, ya'ni odamning hayotga, buyumlarga munosabatlarini sezsa bo'ladi. Bundan tashqari narsalarning, uy jihozlari, buyumlarning joylashuvchi, ularning bir-birlariga munosabatlarini, ularni tasvirlashdagi ranglar echimiga bog'liq har xil tuyg'ular, sezgilarni vujudga keltiradi. Natyurmortda tasvirlangan buyumlar tizimiga karab asarlarga o'ziga xos mazmundagi nom qo'ysa ham bo'ladi. Masalan : «Bahor gullari», «Kuz mevalari», «Kuz tufhasi», «Tongga nonushta», «Ona er sovg'asi» va hokazo.

Yana bir qiziqarli tomoni-natyurmort orqali o'sha davrni, hayotni, kayfiyatlarni, hodisalarni, voqealarni tuzilgan buyumlar turlari, joylashuvi, «jonlanishiga» qarab tasavvur kilsa bo'ladi. Bunda yakka bir mavzuga tegishli bo'lgan buyumlardan natyurmort tuziladi va tanlab olinadi. Masalan : musiqa asboblari, kulol buyumlar, zargarlik buyumlar, oshxona idishlari va hokazolar. Bu vaziyatda mazkur buyumlar to'plamidan natyurmort tuziladi, ularni yanayam chiroyli va ta'sirli ko'rsatish uchun har xil rangdagi gazlomalarni xam qo'shib natyurmort ko'rinishida tasvirlanadi. Ayrim vaziyatlarda, masalan, zargarlik buyumlari bilan birga zargarlik asbob-anjomlari, (qisqich, lupa, ko'zoynak, mitti tarozichalar, metall bo'laklari, qimmatbaho toshlar o'choqlari, qog'ozdan chizilgan taqinchoqlar eskizlari va hokazolar) yoki musiqa asboblari to'plami bilan birga

notalar yozilgan qog'oz varaqlari qo'sha tasvirlanishi mumkin. Bundayin vaziyatdagi natyurmortlarni kasb-hunarga bag'ishlangan natyurmort guruhiga kiritishimizga yo'l ochadi. Shunga misol sifatida N.Koblanovning «Yog'och ustaxonasida» («Bolta bilan natyurmort») asarini ko'rib chiqsak bo'ladi. Asarning butkul hamma yuzasida tasvirlangan natyurmort –har xil buyumlar, yog'ochdan ishlangan, hali bitmagan yokitayyor bo'lgan buyumlar, yog'och chiqindilari, yarim-yarim qismlari, yog'ochdan ishlangan rama, asboblari bu erda odamning borligini (ya'ni u yaqin joyda ekanligini) haqida juda xayotiy ma'lumot beradi.

Yuqorida qayd qilganidek natyurmort boshqa janrlarda bajarilgan san'at asarlaridan ham kartinaning bir qismi sifatida tasvirlanishi mumkin. Shunday aralash janrlardagi asarlar asosan turmushimizni tasvirlovchi asarlar hisoblanadi. Masalan : portret janrida yaratilgan ayrim asarlar xudi shunday yo'sinda bo'lish mumkin. Misol tarikasida K.Shuxaevaning «Bahor bayrami» deb nomlangan guruhlik portretini ko'rib chiqamiz. Ushbu kartina janrlar aralashuvi sifatida juda boy hisoblanadi. Chiroyli va boy qilib bezatilgan bayram dasturxoni atrofida bir guruh ayollar va bolalar (qizaloqlar) bayram kayfiyatida o'tirishibdi. Ularning tashqi ko'rinishlariga qarab har xil millatdagi ayollar ekanini payqashimiz mumkin. Stolda juda ko'p narsalar: markazni katta gullar bilan to'ldirilgan vaza egallagan. Uning atrofida piyolalar (chashkalar), likopchalar, billur va shisha qadahlar, mevalar, shirinliklar, qoshiqchalar tasvirlangan. Asar kompozitsiyasi shunday echilganki, tomoshabin asarni tomosha qila turib, go'yoki ushbu o'tirishning ishtirokchisiga aylanadi. Asardagi buyumlar o'zining materialligi bilan, ularni aniq va chiroyli tasvirlangani bilan o'ziga tortadi. Stol ustida narsalarning joylashishlari, har xil holatlari, ular orasidagi vaziyatlar-masalan: eng oldingi plandagi choy quyilgan piyola, (chashka), yarim to'la billur qadahlar, yarmi eyilgan shirinlik, mevalar, likopcha va uning ustidagi qoshiqcha-bularning barchasi birlashib, tomoshabin oldida turgan vaziyatni yuzaga keltiradi va tomoshabin o'zini go'yo shu dasturxon atrofida o'tirgan his etadi. Nega bunday vaziyat yuzaga kelgan? Chunki rassom kartinani katta ko'lamda chizgan va tasvirdagi odamlar va narsalar xuddi hayotdagi o'lchamlarda, kattalikda, hech bir

o'zgarshisiz haqqoniy tarzda ko'rsatib bergan. Ranglar ham haqqoniy hayotdagiday ko'rsatilgan. Bularning barchasi kartinaning o'zgacha ta'sirli chiqishi uchun bajarilgan var assom V.Shuxaev o'zining oldiga qo'ygan maksadiga katta mahorat, kuzatuvchanlik, sabr-toqat va keng ko'lamda fikrlashi, hayotdagi vaziyatlarni o'rgangan holda juda yaxshi amalga oshirgan.

Natyurmortning tarixiyligi haqida gapirib o'tish shart. Chunki aynan buyumlar bo'lib o'tgan hodisalarni tarixiy jihatdan o'rganishimizda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham tarixiy fanlardan biri bo'lmish arxeologiya sohasida har xil davrdagi shaxarlar, qurg'onlardan topilgan topilmalar, buyumlar, taqinchoqlar, asbob-anjomlar, qurol-yaroq qoldiqlari, shisha va kulol idishlari va ularning ko'rinishlari, ishlash usullari, materiallar, qo'llanilishi, shakllar va o'lchovlari, ko'lamlari o'sha davr xakida izlanishlar uchun kattaahamiyatga egadir. Bunday materiallik topilmalarni aniqlab o'rganish, sifatlash orqali mazkur buyumlr topilgan joylarning ob-havosi, tuproqlarining, o'simliklarining rivojlanishi, qurilmalarining paydo bo'ishi, bo'lib o'tgan hodisalar va voqealar, odamlarning xayot tarzi, qonun-qoidalar, kiyinish usullari, madaniyati, bilim- tafakkuri, urf-odatlar, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari, siyosiy-ijtimoiy vaziyatlari haqida ko'pgina to'liq va mazmunli ma'lumotlar olib, tarixiy, ilmiy izlanishlar va o'rganishlar oqibatida ilmiy yangiliklar keltirib chiqaradi. Chunki har bir davrdagi qonun-qoidalar, urf-odatlar, yashash sharoitlari, siyosiy-ijtimoiy vaziyatlardan kelib chiqqan holda har bir madaniyatning o'ziga xos talablar va ehtiyojlari mavjud, shu jihatlar talablarga mos holda yaratilgan va qo'llanilgan.

Ko'pchilik rassomlar natyurmort ishlashda ayrim shu jihatdagi vaziyatlarga alohida e'tibor beriladi. Ular natyurmort ko'rinishini tuzayotiib buyumlarni bir-biriga mos holda, umumiy bir mavzuga asoslanib tanlab, natyurmort qo'yiladigan tekislikda xar bir buyumning hikmatlarini bilgan holda bir-biriga bog'liq qilib tuzib o'z asarlarida tasvirlaydilar. Masalan: J.Izentaev yaratgan «So'nggi xat» deb nomlangan natyurmort asarida tasvirlangan narsalar bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tarixiy hodislaarni bayonlab berish xususiyatiga ega.

Bu tematik mavzudagi natyurmort chuqur ma'noga ega bo'lib, tomoshabinga o'z tafsilotlari bilan butun bir voqeani tubdan etkazib beradi. Ushbu asar Ulug' Vatan urushiga bag'ishlangan bo'lib, o'sha davrga mos bo'lgan narsalardan tuzilgan natyurmort o'z ranlari va boshqa xususiyatlari bilan, yorug'-soya nisbatlari bilan o'sha davr kayfiyatlarini ko'rsata olgan. Ko'pchilik natyurmort janridagi asarlar orqali har xil sezgilarni, tuyg'ularni, kayfiyatlarni bilishimiz mumkin. Mazkur tuygularga quvonch, baxt, bayram, qayg'u, hasrat, ayanch, iztirob, kishini o'ylantiruvchi sezgilarni paydo qiluvchi har xil buyumlar to'plami orqali vujudga keladi. Ba'zi natyurmortlarni tomosha qila turib esga olish kabi tuyg'ularni ham paydo qiladi.

Dekorativ natyurmort turlari XX asr boshlarida, ya'ni 20-30 yillardan boshlab rivojlana boshladi. Bunday natyurmortlar asarlarni ko'plab rassomlar o'zlarining ishlash usullarida (maneralarida) ma'nodor va har xil shakllili ko'rinishlarda tasvirlashga ishtiyoq bo'lishgan. O'sha davr mashhur rassomlari—Madil'yani, Eduard Mane, Pol' Sezann, Pikasso kabi evropada yashab, ijod qilgan rassomlar va bizning zamondoshlarimiz bo'lgan ko'pchilik mo'ykalam ustalari xam ushbu shakldagi natyurmortlar yaratilgan. Masalan, Mashkov, egorov, A.Shpade, e.Kudryashov, G.Abduraxmanova va boshqalar.

Natyurmort nafaqat inson tuyg'ularini paydo qila oladigan xususiyatlarga ega. Natyurmort falsafiy fikrlarni, dunyoni anglash, tushunish, teran fikrlash, simbolika kabi mazmunga ham egadir. Har qanday falsafiy tushunchalarni, ma'nolarni anglatuvchi buyumlarni tasvirlash orqali muallif o'z fikrlarini chuqur ma'nolik kilib ifodalay oladi. Masalan: yonib turgan sham-hayotning boshlanishi va oxirlashi, bu dunyoning o'tkinchiligi, umr bu bir shamning yonib uchib qolganiga kadar davom etguvchi lahza ekanligini eslatuvchi timsol bo'ladigan bo'lsa, inson kallasi suyagi-bu o'limning beqarorligi, ochilib turgan kitob esa-bu taqdir, insonning umr kitobiga nima yozilgan bo'lsa, shu narsa sodir bo'ladi (peshonada yozilgani bo'ladi) ma'nosini bildirguvchi timsollar sifatida tushunchalar beradigan buyumlar sirasiga kiradi.

Bunday ma`nodar mazmunli natyurmortlar XVII asr evropa rassomlari orasida keng tarqalgan. O`sha davrda ko`pincha diniy mazmundagi asarlar yaratish ularning ijodining asosi hisoblangan va shu tariqa buyumlar to`plamini diniy xarakterdagi to`liq asarlarning bir qismi sifatida qo`shimcha tasvirlashgan. Masalan: XVII asrda yashagan Titsian yaratgan «Pushaymon aylagan Mariya-Magdalina» asari dunyoga tanish. Ushbu asarda yuqorida aytib o`tilgan buyumlar to`plami osmonga qarab iltijo qilib o`tirgan ayolning yonida tasvirlanib asarning tomoshabin tarafidan to`liq qabul qilinishida, voqeani yanamya ta`sirli namoyon bo`lishida katta ko`mak bergan.

Shunday qilib natyurmort janriga tegishli bo`lgan ko`plab asarlarni yanayam boshqa turlarga, oqimlarda va stillarda ko`rsatilgan qilib bo`lib chikishimiz, ularni yanayam chuqur analitik darajada mayda-chuyda jihatlariga o`rganib chiqishimiz mumkin. Shu bilan birga ularni bir-birlari bilan solishtirib, ma`nosini, mazmuni, ko`rinishi, ranglari, mavzusi, ta`sirligi jihatlaridan kelib chiqqan ho`lda analiz yuritishimiz mumkin. Shuningdek yuqorida aytib o`tilgan asarlarni faqat bir taraflama ko`rib chiqishga ham bo`lmaydi. Chunki bir natyurmort to`g`risida uning ko`pchilik fazilatlarini aniqlash mumkin. Masalan : ular tarixiy, ilmiy, lirik, ta`sirchan, har xil tuyg`ularni uyg`otuvchi, dekorativ bo`lib barchasi bir vaqtda tushuntirilishi xam mumkin.

Ba`zi asarlarga qarab ulardagi tasvirlar bo`yicha vaqtni, geografik vaziyatlarni, urf-odatlarini, yil fasllari mezonlarini , bo`lib o`tayotgan hodisalarni, ayrim hayotiy vaziyatlarni, kasb-hunarlar, qiziquvchanlik ko`rinishlarni, xalq va millatlarga xos tuygular va vaziyatlarni (ya`ni aynan bir millatga mos bo`lgan belgilarni) hayotiy vaziyatlarni bilishimiz mumkin. Tasvirlangan buyumlarning ko`rinishi aynan shu kabi ma`lumotlar xaqida «bayonlab» bera oladi.

II BOB. NARSAGA QARAB RASM CHIZISH METODIKASI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

Tasviriy san'at darslarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi xar bir o'qituvchi uchun umumiy ta'limni, estetik tarbiyani amalga oshirish hamda o'quvchilarni turmushga va mehnatga tayyorlashda katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Rasmi chizdirilgadan narsalarning shakli, tuzilishi, rangi kabi xarakterli xususiyatlarini ko'ra bilish va tushunish o'quvchilarda tevarak-atrofdan estetik zavq olish, undan ta'sirlanish xususiyatlarini hosil qilinishi bilan birga, ularning tafakkurini, ijodiy qobiliyatini o'stiradi, badiiy did tarbiyalaydi. O'quvchilar qandaydir bir narsaning rasmini yoki biror manzaraning bir qismi rasmini chizar ekanlar, ularning o'ziga xos xususiyatlarini qalam va bo'yoqlar va mo'yqalam orqali tasvirlaydilar.

Narsaning o'ziga qarab va xayoldan rasm chizish darslarida o'qituvchi o'quvchilarni rasm chizishning asoslari bilan yaqindan tanishtiradi. Realistik tasvirning elementar asoslarini o'rgatish asosan quyidagilar bilan bog'liqdir:

1. Narsalarning shakli, tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ularning bir-biriga o'xshash hamda bir-biridan farq qiluvchi tomonlarini ko'ra bilish va tasvirlash olish.
2. Narsalarni narsalar turini hisobga olgan holda, perspektiv jihatdan to'g'ri tasvirlay olish.
3. Yorug'lik manbaiga nisbatan narsalarning hajmini yorug'-soya yordamida tasvirlash.
4. Qalam bilan ishlash bo'yoqlar va mo'yqalam bilan ishlar malakalarini oshirish va o'stirish.

Rasmi chizdirilayotigan narsalar analiz qilinayotganida ularning estetik jihatdan qanday ahamiyatga ega ekanligini so'zlab berish lozim. Bunda o'qituvchining og'zaki nutqi katta ahamiyatga egadir.

Tashqi tuzilishi hamda hajmi jihatidan turlicha bo'lgan, ya'ni engil, yaltiroq, nozik yoki yumshoq va shu kabi narsalarning ham rasmini chizdirib borish o'quvchilarni yanada qiziqtiradi.

Tasvirni to'g'ri va ta'sirchan qilib ishlash, uning ayrim detallarini qiziqarli va nafis qilib berish, narsalarning fazoviy joylashuvi va yorug'-soyani aniq berish kabilar o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga har bir darsda muntazam ravishda tushuntirib borilishi lozim.

Narsaning o'ziga karab rasm chizishda solishtirish metodi birdan-bir to'g'ri metod hisoblanadi.

O'quvchi biror narsani tasvirlar ekanlar, uni diqqat bilan kuzatib, ikkinchi bir narsa bilan solishtiradilar, ularning umumiy xususiyatini ko'radilar va bir-biridan farq qiluvchi tomonlari xaqida fikr yuritadilar. Bunday solishtirish o'quvchiga chizilayotgan narsaning rasmini uning asliga o'xshatishdan yordam beradi.

O'quvchilarni narsaning o'zini diqqat bilan kuzatishga o'rgatish o'qitishning boshlang'ich bosqichida katta rol o'ynaydi. O'quvchilar narsaning o'ziga qarab uning shakli, nisbatlari, tuzilishi va rangi haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'ladi. Ayrim o'quvchilar darsda narsaning o'ziga karamasdan rasmini chizib o'tiradilar. Bunday o'quvchilar ishlagan rasmni narsaning o'ziga qarab ish yuritgan o'quvchilar chizgan rasmga solishtirilsa, ular o'rtasidagi farq darov seziladi. Ya'ni narsaning o'ziga qaramay chizilgan rasmning sifati past bo'ladi. Shuning uchun narsaning o'ziga qarab rasm chizish darslarida o'quvchilarni narsaning o'zini analiz qilishga, chizilgan rasmni narsa bilan solishtirib turishga o'rgatish o'qitishni muvaffaqit bilan olib borishda xal qiluvchi bosqich hisoblanadi.

Agar o'qituvchi o'quvchilarga narsaga qarashni o'rgata olsa, o'qitishning bu turidagi asosiy masala ham bo'ladi deb hisoblash mumkin.

Rasm chizdirish darslarida muxim masalalardan yana biri o'quvchilarni narsalarning shaklini bilishgsha o'rgatishdir. O'qitishning dastlabki bosqichida bu masalalarni amalga oshirishda birmuncha qiyinchilik tug'iladi. Chunki bu bosqichda xamli rasm chizishga tayyorlanish asosiy vazifa hisoblanadi.

O`quvchilarda kuzatuvchanlik o`stirilib, ko`rgan narsalarni analiz kila olish va ular xakida to`liq fikr yuritish yuzasidan ma`lum darajada malaka hosil qilinganidan so`nggina xajmli rasm chizishni muvaffaqiyat bilan olib borish mumkin. Shuningdek o`quvchilar surat tekisligi, ko`rish nuri, ufq chizig`i, kesishish nuqtalari kabi tasvirlashning qoida va usullari hamda elementlar nazariyalar haqida chukurroq fikr yuritadilar. Bular esa bajarilishi kerak bo`lgan ishlarning sifatini oshiradi, o`quvchilar dunyoqarashini kengaytiradi, ularning tasviriyl san`at xakidagi tushunchalarini boyitadi.

Narsaning o`ziga qarab rasm chizish darslarida chiziladigan narsani qo`yish quyidagi talablarga javob berishi kerak :

1. Narsa hamma o`quvchilarga yaqqol ko`rinib turishi lozim.
2. Narsaning xajmi va uning fazoviy holati aniq bilinib turishi kerak.

Rasm chiziladigan narsaning yaxshi ko`rinishi rasm darsining muvaffaqiyatli o`qitishi uchun zamin hisoblanadi. Agar rasmi chiziladigan narsa o`quvchilarga aniq ko`rinib turmasa, ulardan bu narsaning xarakterli xususiyatlarini to`g`ri tasvirlay bilishni talab qilib bo`lmaydi. O`quvchilarni chizilgan har bir rasm yuzasidan to`g`ri xulosalar chikarishga o`rgatishda eng mayda sharoitlarni xisobga olish xam o`z o`rnida katta axamiyatga ega. Darsda chizish uchun olma, nok, choynak vash u kabi unchalik katta bo`lmagan narsalar katta ko`lamdagi buyumlar bilan birgalikda tasvirlanadi.

Agar o`qituvchi narsani hamma o`quvchilarga ko`rinib tursin degan maqsadda ufq chizig`idan yuqoriga, bir erga qo`ysa, u holda jiddiy xatoga yo`l qo`yadi. Chunonchi, narslaar yuqori qo`yilganda ular turgan tekislik o`quvchilarga ko`rinmaydi. Shu bilan birga, bu narsalarning qaysi biri uzoq turganligi xam aniq bilinmaydi. Natijada narsalarning shakli o`lchov nisbatlari va ularning fazoviy holatlarini to`g`ri tasvirlab bo`lmaydi. Shuning uchun narsani to`g`ri o`rgatishga, ya`ni uf chizig`idan bir oz pastroq quyishga alohida e`tibor berish. Zotan, chizilayotgan narsalar (kitob, yashik, korobka kabilar) ning ustki qismlari yaqqol ko`rinib turgandagina o`quvchilar ularning xarakterli xususiyatlari xamda perspektiv qiskarishini to`g`ri tasvirlay oladilar.

Ayniqsa, narsalar turgan yuzaning qurilishini akvarel` bo`yoq bilan ishlash darsida katta ahamiyatga egadir.

Bundan tashqari, narsani biz hayotda qanday holda uchratsak, shunday holda o`quvchilar oldiga chizish uchun qo`yishi kerak.

Dars vaqtida o`qituvchining yangi materialni tushuntirish hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Umuman, darsga iloji boricha yaxshi tayyorlanish shart.

Kishining malaka va bilimi qanchalik keng bo`lsa, rasm chizish uchun ketadigan vaqt shunchalik ko`p bo`ladi. Kuzatish jarayonida o`quvchilar narsalarning o`lchovlarini o`zaro solishtiradilar xamda ular o`rtasidagi farqni topadilar.

Narsalarni tasvirlashda ularning shakl xususiyatiga, asosiy nisbatlariga, ya`ni predmet bo`laklari o`lchovlarining bir-biriga nisbatan uzun-qisqaligiga, narsalarning tuzilishiga, ya`ni predmet bo`laklarining o`zaro bog`liqligiga, ranglarini to`g`ri topishiga va ularning o`ziga xos xususiyatlarga ahamiyat bermoq lozim. Shuning uchun narsalarni xarakterli qilib tasvirlashda chizish uchun nusxani to`g`ri tanlash katta ahamiyatga ega. O`quvchilarda esa rasmini chizish uchun qo`yilgan narsalar nusxasini aniq tasvirlash va uni to`g`ri ko`rish talab etiladi. O`quvchilar narsani kuzatishni ham o`rganishlari lozim. Shundagina ular rasmi chizilishi zarur bo`lgan narsa haqida, uning shakli, rangi haqida aniq tushunchaga ega bo`ldilar.

Rasm chiziladigan narsa nusxasini kuzatish va analiz qilish davrida nusxa enining bo`yiga nisbatan to`g`ri topishi va uni katta bo`lsa, qancha katta yoki aksincha, kichik bo`lsa qancha kichik ekanligini xaqida fikr yuritmoq kerak.

Perspektiva hodisasini ko`rsatmalilik asosida o`rganish ishda katta qulaylik tug`diradi. Bunda san`at asarlaridan ko`rsatma qurol sifatida foydaolanishni maksadga muvofiqdir. Masalan, U.tansiqbovening «Tog`da kuz» kartinasini o`kuvchilarga ko`rsatganda unda uzoqdagi daraxtlar yaqindagisiga nisbatan kichik qilib ishlanganligini va yo`lning uni borgan sari kichiklashib borayotganligini so`zlab berish lozim. Shuningdek, temir yo`l ko`rinishi tasvirlangan rasmda foydalansa bo`ladi. Unda telefon va telegraf simlari tortilgan ustunlarning

balandligi, temir yoʻl shpalolarining uzunligi, relʼslar oraligʻi qisqarib borayotganligini koʻrsatmali ravishda tushuntiriladi.

Oʻquvchilar maʼlum darajada bilim va malakaga ega boʻlganlaridan soʻng, ularga shuʼla-soya hodisasi tushuntiriladi va chiza boshlanadi. Oʻquvchilar bu hodisani tushunib tasvirlashlari uchun, shuʼlaning yorugʻlik manbaiiga va narsalarning shakliga bogʻlab, taksimlanishini bilib olishlari kerakligi tushuntiriladi.

Shuʼla deb yorugʻlik manbai roʻparasida joylashgan yuzaga aytiladi.

Soya-shuʼla manbaiga teskari joylashgan yuzadir.

Yarim soya–yorugʻlik manbaiga nisbatan har turli vaziyatda joylashgan yuzadir. Refleks aks-taʼsir natijasida hosil boʻlgan yuzadir. Shuʼlaning oʻrtasida joylashgan eng yorugʻ tekis yuza esa blik deb ataladi.

Soyalar ikki xil boʻladi.

1. Shaxsiy soya
2. Tushuvchi soya

Shaxsiy soya-narsaning oʻz tanasida joylashgan soyadir. Tushuvchi soya esa, bu bir narsadan ikkinchi narsaga yoki shu narsa qoʻyilgan tekislikka tushgan soyadir.

Soyalar narsalarning turiga qarab, ularning tanasida turlicha joylashadilar. Agar narsa tekisliklar bilan chegaralangan boʻlsa (prizma, piramida va boshkalar), ularda yorugʻdan soyaga oʻtishi keskin tus oladi.

Ulardagi bu keskinlik yorugʻ bilan soya oʻrtasida roʻy beradi.

Asosida konus, tsilindr yotgan narsalarda yorugʻdan soyaga oʻtish asta-sekinlik bilan namoyon boʻladi.

Narsalarni tasvirlash eng oddiydan boshlanib, bunda yorugʻ-soyaning uchun asosiy turi boʻlgan shuʼla, yarim soya va soyaga ahamiyat berish zarur boʻladi. Soʻngra oʻquvchilarning kuzata olish qobiliyatlari oʻsa borgani sari ularga refleks, blik, tushuvchi soya va shaxsiy soyalar xakida tushuncha beriladi.

Narsalar shaklini toʻgʻri tasvirlash uchun, ularning orqa tomondagi koʻrinmas chiziqlarini ham chizish kerak boʻladi. Keyin, narsaning boʻlaklari va

o'lchovlariga, ya'ni enining balandligiga nisbati ham doira qismi enining umumiy balandligiga nisbati masalasiga e'tibor beriladi. Narsalarni to'g'ri tasvirlashda ularning o'q chizigini o'tkazib olib chizish katta ahamiyatga ega. Chunki bu simmetriya o'qi orkali narsalarning shaklini topish, unga qarab tsilindrning doiralarni chizish kabi ishlar bajariladi.

Narsalar rasmini chizishga bo'lgan tala basta-sekin oshib bora iva hajmli shakni yorug'-soya yordamida tasvirlashga ahamiyat beriladi.

O'quvchilarni narsaning o'zidagi yorug'lanishi darajasini (yorug', soya, yarim soyani) ko'rishga o'rgatib borish o'qituvchilarning asosiy vazifasidir.

Soyani tasvirlashda o'quvchilar rasmning bir tomonini yorug', ikkinchi tomonini soya qilib bo'yab qo'ya qolmasdan, balki uni tushungan holda, ongli ravishda tasvirlashlari kerak bo'ladi.

Narsalar tanasida yorug'lanish darajasini tushuntirish maksadida yanada yaxshiroq tushuntirish maksadida ulargna refleks haqida tushuncha beriladi. Refleks hodisasini to'liq tushuntirishi uchun oq qog'oz olinib, uning narsaning soya tomoniga tutiladi. Natijada narsaning soyasidagi refleks qog'oz ta'sirida yorishadi. Bu ish uch-to'rt marta takrorlansa o'quvchilar refleks haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar.

Refleks hodisasi narsa o'rab olgan boshqa narsalarga bog'liq bo'lib, u asosan stol, devor, yoxud stol ustida yotgan boshqa narsaning ta'siridan hosil bo'ladi.

Yorug' soya, yarim soya, refleks va boshqalar haqida ma'lumot berilganda, ularning narsalar shaklining yaqqol ko'rinishida muxim rol o'ynashini alohida ta'kidlash zarur. Yorug'-soyalarni o'quvchilarga yaxshi tushuntirish uchun yorug'-soya berish texnikasini ko'rsatmali ravishda katta o'lchovdagi qog'ozda chizib ko'rsatish hamda soya berishda yorug'-soyalar o'rtasidagi nisbatlarni esda saqlash kerakligini uqtirib o'tish lozim.

Kuzatuvchanligi hamda rasm chizish malakalarining oshib borishi natijasida o'quvchilar narsalar formasini ko'rish va yorug'-soyani ongli ravishda tushungan holda tasvirlay olishni o'rganib oladilar.

Natyurmort postanovkasi- Tasviriy san`at madaniyat rivojining bir bo`limi bo`lib, uning o`zgarishlari va uning rivojlanish tarixidagi o`rni, undagi xilma-xil yangiliklar, turli jihatlaridagi ta`sir kuchi ko`p vaqtdan buyon hammaga ma`lum. Tasviriy san`atning o`ziga xosligi esa uning estetik tarbiya bilan aloqadorligi butun avlodining o`sishi va rivojlanishida o`z hissasini qo`shib, har bir davrning o`ziga xos ko`rsatkichlaridan biri ham bo`lib hisoblanadi. Tasviriy san`at tushunchasiga nafis san`at, grafikasi, haykaltaroshlik va amaliy san`at kiradi. Bu yuqorida sanab o`tilgan tasviriy san`at turlarining har biri ijodkor tanlagan voqiylikni, mavzuni o`ziga xos vositalarda, badiiy tilda tasvirlaydi. Bu san`at turlari ichida eng katta tarqalgani nafis tasvir san`atidir.

Nafis tasviriy san`at–tasviriy san`atining bir turidir. Rassom bo`yoqlar va maxsus usullar yordamida predmetni xajmini tasvirlaydi. Nafis tasviriy san`at – beshta elementlardan iboratdir. Bu elementlar buyum shaklini, rangini tushayotgan yorug`ni, yasalgan materialini, tasvirlanayotgan predmetni qanday sharoitda va muhitda ekanini tasvirlashda namoyon bo`ladi.

Tasviriy san`atda bir necha janrlar mavjud : tarixiy, jang manzaralini aks ettiruvchi janr, maishiy janr, portret, manzara, natyurmort, inter`erdir. Har qanday san`at asarining negizini kompozitsiya tashkil qiladi. Natyurmort tuzish bu ijodiy jarayon. Unda rassomning didi, layoqati, kompozitsiya madaniyati, bilim saviyasi namoyon bo`ladi.

Natyurmort haqida so`z ketganida, odatda, sabzavotlar, mevallar, gullar, uy ro`zg`or buyumlari, har xil narsalarni tasvirlash ko`zda tutiladi. Ammo natyurmortda jonsiz tabiat atsvirlaniganiga qaramay, matoda jonli hayot nafasini seza olamiz. Natyurmort kompozitsiyasini ma`noli va ta`sirchan chikishi uchun yagona mavzudagi bir-biriga munosib va mos narsalar tabiiy bog`lanishda qo`yilishi kerak. Qo`yilgan natyurmort kishida qiziqish va rasm chizishga havas hissini uyg`otaligan bo`lishi va albatta kompozitsiya talablariga javob beradigan bo`lishi lozim. Natyurmort tarkibiga kiradigan narsalar estetik ta`sirchanlik talablariga javob beradigan, shakli, hajmi, materiali, sirtqi (fakturasi) rang va och-to`qligi (tus) bilan bir-biridan farq qilishi kerak. Misol uchun, katta ko`lamdagi

chelak yoniga qo'yilgangugurt qutichasini ko'z ilg'amaydi, chunki ular o'rtasida uzviy bog'lanish sezilmaydi. Tanlab olingan narsalarni predmet tekisligida bir-biriga nisbatan qanday joylashtirilishi natyurmortni qiziqarli chiqishiga ta'sir etadi.

Sharden, Surbaran, Kolf, Sneyders, K.Korovin, I.Mashkov, P.Konchalovskiy va boshqa natyurmort nafis rassomlar asarlarida hayotiy haqiqatni, matoda jonlangan tabiatni ko'ramiz. Shardenning «Piyozli natyurmort» asarida stol ustidagi ko'k piyozni cho'zinchoq shakllari qiziqtirib, surat kompozitsiyasini cho'zinchoq bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Shakli jihatdan unga zid narsalar izlab, Sharden sharsimon olmalarni, ovalsimon tuxumlarni va ro'zg'orda zarur bo'lgan buyumlarni, miss, qog'oz, sopol va shisha idishlarni tanlagan. Rassom ataylab shakli o'lchami, materiali bir-biridan farq kiladigan narsalar tanlashda tabiatni o'ziga xos, narsalarning rang-barang va turli-tumanligi qiyos qilgan. Bir qarashda bu natyurmort mazmun jihatidan juda soda ko'rinadi. Rassom turmush narsalardan biri nechasini olgan xolos. Mazmunan bir-biriga monand narsalardan tanlab olganidan keyin, ulardan shunday bir yaxlit bir guruh tashkil qilish kerakki, u kishida qiziqish uyg'otsin, diqqatini o'ziga tortib, albatta uning tasvirini yaratish ishtiyoqini hosil qilsin. Sharden natyurmort tuzishda tanlagan narsalar –mis qozon, sopol, cho'mich, yashil rangli shisha idish, ko'k piyoz boshlari, ikkita olma va ikkita tuxumdan iborat. Bular xammasi oshxona ashyolari bo'lib, shakllari, tuzilishlari, sirlari va ranglari har xil. Bular ulkan mo'yqalam sohibining yuksak talanti, tabiatning beqiyos idrok qilishini natijasidir.

Natyurmortning kompozitsion muayyanligi uni tabiiyligidir. Shuning uchun natyurmort tuzish, uni o'rnatish, voqtida yaxlitlikka e'tibor berib, nihoyasiga etkazishga harakat kilish lozim. Buning uchun esa klassik namunalarni ko'plab tahlil qilib, u yoki bu asar insonga nima uchun shunchalik ta'sir etadi, zavqlantiradi, degan savollarga javob izlash foydalidir. Natyurmortning manzara yoki inter'erga nisbatan afzalligi yana shundaki, uni quyib olgandan keyin bir necha kun joyidan qo'zg'altmasdan har xil qarash nuqtalaridan qayta-qayta tasvirlash mumkin bo'ladi. Natyurmortning atrofimizdagi tabiatdan farqi shundaki, uni inson ijod qilish yoki o'rganish maqsadida o'zi ataylab tuza oladi, tafakkuri

bilan barpo qila oladi. O`quv natyurmortning kompozitsiyasi bir tomondan estetik talablariga, ikkinchi tomondan ta`limning didaktik talablariga javo berish kerak.

Natyurmort qo`yilmasi puxta va uzoq vaqt o`ylab, mulohaza qilib tashkil etiladi. Unga ko`p narsa kiritilmasda predmetlarning shakl va ranglari har xil bo`lishigsha e`tibor berish kerak. Silliqlik yaltiroqlik sirtli idishni, sirti jilvasiz narsa bilan, qirrali buyumni dumaloqlik shakl bilan yonma-yon qo`yilsa, ularni taqqoslash va keyinchalik o`rganish uchun imkoniyat tug`iladi. Natyurmortni asosiy talablaridan biri o`lcham, rang va ton jihatidan ajralib turishi, hamda surat tekisligining markaziga yaqin joyga qo`ya bilishdir. Bu surat mazmunini ochishda, so`zboshlovchi vazifasini o`taydi, kompozitsiyaning markazini bo`rttirib ko`rsatib beradi. Ko`pincha rassomlar asosiy predmetni ataylab geometrik markazdan sal siljitib qo`yadilar muvozanatni saqlash uchun qarama-karshi tomonda rang va och-to`qligi o`ziga zid bo`lgan predmet oladilar.

Taniqli natyurmort nafislar Sezani, Sharden, Xrutskiylar bu usulda unumli foydalanganlar.

Natyurmort janrida O`zbekistonlik rassomlardan V.Ufimtsev, S.Kalibanov, Yu.elizarov, R.Axmedov kabilar o`z asarlarida tabiatni beqiyos boyligina milliy ruhda jozibali tarannum etgan. O`quv natyurmortning muxim tomonlaridan biri tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy joylashishidir. Qo`yilmaga kiradigan narsalardan kattasi orqaroqlikda, maydalari oldinroqlikda, biri ikkinchisining va asosiy narsani bir oz berkitib turadigan qilib qo`yiladi.

Natyurmortdagi narsalarni mazmunan bir-biriga bog`lash maqsadida unga cho`ziqlik shakldagi narsa kiritiladi. Surat tekisligining asosida kompozitsiya markaziga karatib qo`yilgan pichoqlik, qog`oz o`rami, mo`yqalam va hokazolar surat mazmunini ochishga yordam beradigan «kalit» bo`lib, tomoshabin nigohini kompozitsiya markaziga yo`naltiradi. Natyurmortning fazoviy holatini yaqqolroqlik tasvirlash uchun birinchi planda unga katta bo`lmagan, ammo yorqin narsa qo`yiladi. Natyurmortning ufq chizig`iga nisbatan qanday joylashishi ham katta ahamiyatga ega. Ma`lumki, ko`z balandligidan pastroqlikda qo`yilgan natyurmort yotiq predmet tekisligida to`la-to`kis ko`rinib turadi, narsalarning asoslari, ularning

o`zaro joylashishi yaqqol ko`rinadi va joylashuvini to`laroq ochib berish uchun yorug`lik nurlari peshonadan old tomonidan yoki yon tarafdan tushadigan bo`lishi kerak. Tabiiy yorug`likning kuchi etarli bo`lmasa, natyurmortning yon tomoniga sun`iy yoritqich qo`yiladi. Shunda oldingi narsalarda yorug` soya kontrasti keskin bo`lib, ularning hajmdorligi bo`rtib ko`zga tashlanadi, sirlari yaqqo ko`rinadi. Ikkinchi plandagi narsalarda esa ziddiyat kamroq seziladi. Nurlarning kuchi kamayib borgan sari uchinchi plandagi narsalardagi qarama-qarshilik yanayam mayinlashadi, ularning chegaralari fonning to`q joylari bilan umumlashtirib ko`rinadi. Lekin natyurmort bo`yoqlarda tasvirlanadigan bo`lsa, uni deraza yaqiniga kunduzgi tabiiy nurlar ostida va biroz yonboshdan yorug`lik tushadigan qilib qo`yilgani ma`qul.

Vazifa natyurmortdagi narsalarning asl ranglarini aniqlashdan iborat bo`lganda, u deraza ro`parasidagi devor yoniga qo`yiladi. Bunda natyurmortga nurlar old tomondan tushadi, soya va reflekslar unchalik ko`p bo`lmaydi va predmetlarning o`z rangi yaqqol, ochiq-oydin ko`rinadi. Avvaliga fon uchun tanlanadigan gazlomalar yaxlit, sidirg`a va nursizroq bo`lgani ma`qul, chunki olachipor yorqin rangli gazloma ko`zga aniq tashlanib, natyurmortning o`zini ko`rishga halaqit beradi. Shuni ham hisobga olish kerakki, oqish fonda qoramtir narsalar, to`q fonda esa, aksincha oq narsalar ravshan ko`rinadi. Keyinchalik natyurmortga kompozitsiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida burmali matolar (drapirovka) kiritiladi.

Orqa fonga va predmet stoliga solinadigan gazlomaning (chit, surup, shoyi, baxmal, movut) xarakteriga mos holda mayda va yirik burmalar solib qo`yish mumkin. Gazloma devordagi bitta nuqtaga biriktirib qo`yilsa u pastga erkin osilib tushadi va tabiiy shakldagi burma hosil qiladi.

Yuqorida aytganimizdan ma`lum bo`ldiki, natyurmort postanovkasini qo`yish jiddiy va ma`suliyatli ishdir. Yaxshi qo`yilgan natyurmortda ortiqcha tasodifiy narsalar bo`lmaydi, uni old yoki yon tomonidan qarash nuqtalaridan kuzatilganda, mazmunli yaxlit guruh bo`lib ko`zga yaqqol tashlanib turadi.

O`quv natyurmortdan ijodiy natyurmortning farqi shundaki u hayotga yaqin bo`ladi. Odam ishtirokisiz ham ko`p ma`noni anglatadi.

Misol tariqasida V.Ufimtsevning «Garmon`» va Abduraxmonovning «Samovarli natyurmortini» olamiz va «Garmon`» natyurmortida jangchining kundalik «poxod» anjomlari avtomat, maxorkali XAVO gazeta, mis kosacha BUSh turva va 34- betdan jangchining xamrohi – garmon` tasvirlangan. Bu natyurmort o`zida odam ishtirokini bildirib eslatib turadi. «Samovarli natyurmort» da esa mavzu kompozitsiya tuzilishiga monand olingan yorug` milliy so`zana fonida qo`yilgan katta xajmdagi samovar va stol ustidagi landa so`yilgan qovuntarvuzlar, non, olma-anorlar hamda ularning tekislikda kompozitsiya jihatidan badiiy ifodali joylashishi tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Mehmondo`st o`zbek xalqning insonlarga saxiyliigi tushunchasi tabiat inomlari orqali o`z aksini topgan.

Shunday qilib natyurmort tuzish uchun :

a)mavzu tanlash ;

Abdirasilov S., Tolipov N, Oripova N. Rangtasvir metodik qo`llanma.
II-qism. T., 2002, 15-17 betlar

- b) natyurmort mavzusiga mos keladigan jihozlar, predmetlar, gazlomalar topishi;
- v) narsalarning shakli, tuzilishi, tusi va ranglarini hisobga olib joylashtirish ;
- g) predmetlarning hajmdorligini yaqqol ko`rinadigan tarzda yoritish –zarur ekan.

Shularning hammasi birgalikda olinganda natyurmort kompozitsiyasi, ya`ni qo`yilmasi deb yuritiladi.

Natyurmort postanovkasini qo`yish uchun buyum va narsalar tanlashda natyurmort ishlashdagi asosiy vazifa ko`zda tutiladi. Bunda har xil turdagi vazifalar bo`lishi mumkin. Masalan, alohida ko`rinishlarni tashkil qiluvchi yorug`-soya munosabatlarini o`rganish yoki buyum va narsalarning ko`lam va shakllarini ko`rsata olish, natyurmort postanovkasida ishtirok etayotgan buyum va narsalarning sirtqi ko`rinishi, fakturasi va materialligini aniq ko`rsatish yoki biror-bir mavzu asosida natyurmort ishlashni o`rganish bo`lishi mumkin. Yuqorida aytib

o`tilganidek natyurmort postanovkasi uchun buyumlarni tanlashda ularneing bir-biriga mutanosibligi, ranglari va tuslari, ko`lami va shakllari mutanosibligi, shuningdek ularning o`rtasidagi bog`liqlik bo`lishi kerak. Misol uchun olib qaraydigan bo`lsak, uy-ro`zg`orda ishlatiladigan biror xarakterli buyumning yonginasida ro`zg`orga hech qanday aloqador bo`lmagan buyumning qo`yilishi natyurmort postanovkasining mazmunini uning mohiyati va saviyasini ham tushirib yuboradi. Shuning uchun ham natyurmort ishlash uchun buyum va narsalarni tanlash borasida ular orasidagi bog`liqlikni ko`zlagan holda ish olib borish zarur.

Bundan tashqari, natyurmort postanovkasining mazmundor va chiroyli ko`rinishga ega bo`lgan ishlarda ularning bir-biriga moyilligi, ranglarning bir-birina to`liqtirishi, shuningdek, orqa fon bilan bog`liqligi ham ahamiyatga ega. Natyurmort postanovkasi qo`yilayotganda narsalarning fon bilan bog`liqliklarini ta`minlash joiz. Fon faqatgina narsalarning aniq ko`rinishi uchun qo`shimcha ko`rinishi bo`lish bilan birga o`ziga xos bo`lgan holda natyurmortning bir bo`lagi hisoblanadi. Fon xizmatini har xil fakturaga ega matolar bilan birga gilam, ko`rpacha, so`zana, o`tovning kereche devori, namat, qamishdan to`qilgan chiy devor va shunga o`xshash narsalar bo`lishi mumkin. Ko`p hollarda ijodiy va muayyan mavzuga bag`ishlangan natyurmort postanovkasi uchun orqa fon xizmatini oyla oldi, ayvonning bir bo`lagi, shkaf hatto kartinalar ham o`tashi mumkin. Bu ko`rinish faqatgina ijodiy natyurmort ishlash uchun qo`llanishili kerakligini yana bir bor qayd qilsak bo`ladi. Masalan, Mashkov yaratgan «Nonlar» deb nomlangan natyurmort asarda har xil ko`lamdagi va shakllardagi nonlarning yig`ilgan ko`rinishi tasvirida orqa fon xizmatini yog`och uy devori, devorga chambarak qilib osib qo`yilgan nonlar o`tab turgani ma`lum. Bu holat natyurmort asarining mazmuni aniqlash, boyitish va qiziqarli qilib ko`rsatish bilan birga orqa fon ko`rinishini berib turadi. Shuningdek, Sneyders yaratgan murakkab ko`rinishdagi har xil do`konlar – «Go`sht rastasi», «Dengiz hayvonlari, baliqlar do`koni» natyurmort asarlarida ham oddiy do`kon devori, tokchalar, shitfga va devorga osib qo`yilgan baliqlar, qushlar ham fon xizmatini o`tab turganini

payqaymiz. Mashhur Karovadjo yaratgan «Mevali savat» asarida esa neytral fon oldingi planda ko`rsatilgan mevalar bilan to`ldirilgan savatni aniq va ravshan ko`rinishini ta`minlay olgan.

Qoraqalpoq rassomlaridan B.Serekeev yaratgan «Milliy ko`rinishdagi natyurmort» asarida, «Ayronli natyurmort», «Qovunli natyurmort» asarlarida orqa fon sifatida o`tov devori –yog`och kerege, oq basqur va quraqdan qilingan ko`rpacha va gilamlar xizmat kiladi. Bu holat natyurmortning mazmunidan kelib chiqqan holda mavzuni yanayam chukurroq va boy qilib ko`rsatgan narsa bu – albatta natyurmortdagi buyumlar va albatta orqa fonning ular bilan bog`liqligidir. U natyurmortning milliyligini aniklashtirib turish bilan birga uning mohiyatini kuchaytira olgan. Xudi shu printsiptda ko`plab natyurmort asarlar yaratilgan. Shu qatorda rassom J.Izentaevning «Keli-kelsab bilan natyurmort», «Maska bilan natyurmort», S.Baybosinovning «Ko`rpachalik natyurmort», «So`zana oldidagi gullar», yosh rassom Baxtiyor Serekeevning «Qovun bilan natyurmort», «Tuxumsimon qovoqchalar bilan natyurmort» va boshka asarlarni atab ko`rsatish mumkin. «So`zana oldidagi gullar» asarida chiroyli ko`rinishga ega sopol ko`zadagi gullar aylana qora rangli naqshlar kashtalab tikilgan eski so`zana oldida qo`yilgan natyurmort postanovkasi unchalik murakkab bo`lmagan, lekin o`zlarining rang-barangligi, milliy shakllar va naqshlarning ko`rsatilishi bilan natyurmort juda ta`sirli va yoqimli manzarani vujudga keltirgan. Bu yo`sinda asar muallifi taniqli rassom S.Baybosinovning mahoratini alohida ta`kidlab o`tish joiz. Bu erda buyum va narsalar ko`p emas –faqatgina ko`za va gullar, ammo ular orqasiga atayin qo`yilgan naqshinkor so`zananing o`zigina uning mazmunini boyitib, bu oddiy ko`rinishni boy va ta`sirli qilib ochib bergan.

Orqa fon orqali asarning ta`sirchanligini oshirishda O`zbekiston xalq rassomi J.Izentaevning yaratgan natyurmort asarlarini atab o`tish lozim. U yaratgan «Keli-kelsabli natyurmort» asarida orqa fon sifatida quraq bilan bajarilgan ko`rpacha ko`rinishi ko`rsatilgan. Bu rang-barang ko`rsatilgan holat natyurmortning milliy va yoqimli ko`rinishini yanayam go`zal va maftunkor holatga keltirgan. Shunday qilib, natyurmort postanovkasida orqa fon katta

ahamiyatga ega. Ayniqsa, natyurmort ishlashda orqa fonning o'ziga xos alohida roli juda muhim. Ko'p asarlarda natyurmort mavzusini aynan orqa fon orqali ochib berish imkoniyati bor. Ko'p rassomlar natyurmortning mazmun mohiyatini aynan fon bilan ko'rsatishga harakat qilishadi, chunki ayrim hollarda orqa fon «bosh rol» o'ynashi xam mumkinligi ma'lum.

Natyurmort postanovkasi uchun buyum va narsalar avvaldan belgilangan mavzusi asosida tanlanadi. Tanlangan buyumlar ham aynan mavzuning mazmuniga qarab postanovka qo'yiladi. Natyurmort postanovkasi qo'yilganidan so'ng qog'oz yoki matoga kompozitsiya qilinadi.

Natyurmort kompozitsiyasi-Natyurmort ishlashdan avval postanovka yaxshilab o'rganiladi. Ya'ni rassom o'zi tanlagan ishlash nuqtasidan, to'g'rirog'i ko'rish nuqtasidan turib natyurmort postanovkasini sinchiklab o'rganish tavsiya etiladi. Postanovkaga qarab turib rassom ko'z oldiga o'z tasavvurida bo'lajak natyurmort asarini «ko'ra olishi» kerak. U tasavvurida natyurmortning ranglari, ko'rinishi, holati, yorug'-soya holatini ko'rinishi kerak bo'ladi. Qog'oz yoki mato sathiga natyurmortning umumiy chegaralari belgilab olinadi va natyurmortdagi buyumlar guruhini ushbu chegara ichiga joylashtiradi. Natyurmort ishlashda uning kompozitsiyasini to'g'ri va chiroyli holatini topish juda muhim. Kompozitsiya holatining aniq va to'g'ri bo'lishi asarning ko'rinishi va mazmunini kengaytiradi. Kompozitsiya markazini topib, boshqa narsa va buyumlarni unga bo'ysundirilgan holda bajarish mumkin. Buyumlar umumiy lashtirilib ko'rsatilishi uning tomoshabin tomonidan qabul qilinishida katta rol o'ynaydi. Kompozitsiyaning umumiy ko'rinishida natyurmort postanovkasida ishtirok etayotgan buyumlarning barchasi o'z o'rnida ko'rsatiladi, lekin ularning barchasi natyurmort mazmuniga monand bo'lishi shart. Bu erda katta-kichik, turli shakllardagi buyumlar, natyurmortning yorug'lantirilishi, ranglar uyg'unligi, proportsiya masalasi –barcha alomatalar kompozitsiyani tashkil qiladi. Shuningdek, ko'rish nuqtasining to'g'ri va unumli topilishi ham natyurmort kompozitsiyasining aniq va chiroyli chiqishini ta'minlay oladi. Chunki, kompozitsiya tarkibiga natyurmort postanovkasidagi narsalarning hammasi kirishi va ular rassomga aniq ko'rinib turishining

ta'minlanishi natyurmor asarning ko'rkam va chiroyli chiqishiga yo'l beradi. Tomoshabin uchun to'liq ko'rinishdagi natyurmort postanovkasining tasvirini tomosha qilish ancha zavqli ekanini ta'kidlab o'tish joiz.

Kompozitsiya qonun-qoidalari bilan tanish bo'lgan har bir mutaxassis rasom o'z asarlarini yaratishda albatta ularga rioya qilishi kerak. Chunki bu qonun-qoidalarining qo'llanilishi asarning mavzusi va mazmunini to'liq ochib berish bilan bir qatorda undagi tasvirning tomoshabin tomonidan to'liq va to'g'ri qabul qilinishini ham ta'minlaydi. Bu jarayon san'atning barcha janrlariga tegishli bo'lib, unga hatto natyurmort ishlashda xam bo'ysunish kerak bo'ladi. Natyurmort postanovkasining ko'rinishini to'g'ri ifodalash va undagi barcha buyum va narsalarni to'liq va ravshan tasvirlay olish natyurmortning qog'oz yoki matoo sathida to'g'ri joylashtirilishi, ularning proportsiyalarini, hajmlarining aniq ko'rsatilishi, buyumlarning katta-kichikligi va ranglarning taqsimlanishini aniqlash bilan belgilanadi. Bundan tashqari bu narsalarning shaxsiy ranglari, shaxsiy soyalarini to'g'ri va naturaga yaqin ko'rinishda ko'rsata olish kerak bo'ladi. Ko'plab rassomlar o'qish jarayonida narsalarning shaxsiy ranglarini tabiiy ko'rinishda tasvirlashga harakat qiladi. Bunda bu jarayonda atrofdagi boshqa buyum va narsalardan tushayotgan reflekslarni ham ko'rsatib o'tish joizligini esda tutish kerak. Har bir buyum yoki narsaning o'zining rangi bilan birga reflekslarni ko'rsatish bilan uning sirtqi ko'rinishi, fakturasini yanayam aniq va tabiiy qilib ko'rsatish kerakligini bilish joiz. Reflekslar xar xil yo'sinda bo'lishi mumkin. Ularning har xil ranglarda bo'lishi rangtasvirda juda chiroyli ko'rinishni yuzaga keltiradi. Ammo, reflekslarni tasvirlashga berilib ketmaslik kerak, ba'zida bunday chalg'ish holati buyumning hajmini buzib ko'rsatishi ham mumkin. Reflekslarni me'yorida ko'rsatish bilan bir qatorda buyumning shaxsiy, tabiiy rangini to'g'ri ko'rsatish maqsadga muvofiq. Me'yordan ko'payib ketgan sharoitda buyumning o'z rangi ham, hajmi ham ko'rinmay qoladi.

Buyumlarning eng xarakterli ko'rinishga ega bo'lgan birini tanlab turib, uning balandligini masshtab sifatida foydalanish mumkin. Uni boshqa predmetlarning ko'lami va ular orasidagi oraliqlarni aniq ko'rsatish uchun

qo'llanish zarur bo'ladi. Predmetlarning joylashuvini aniqlash katta ahamiyatga ega. Proportsiyalarning to'g'ri topishili uchun xar predmetning ko'lami va hajmini aniqlab, ularning bir-biriga solishtirgan holda tasvirlash kerak. Ularning hajmi va balandligi proportsional holda bo'lishi muhim. Umumiy ko'rinishda kompozitsiya markazi, buyumlarning guruhining umumlashtirilishi natyurmortning postanovkasining to'liq qabul qilinishida muxim rol o'ynaydi. Umumiy ko'rinishni tasvirlab bo'lgandan so'ng buyumlarni detallashtirib ko'rsata boshlash kerak. Har doim umumlashtirilgan holatni ko'ra bilish zarur. Shuningdek, barcha predmetlar orasidagi oraliqlarni taqqoslash, ish borasida ularning ko'lami va hajmini solishtirib borish kerak bo'ladi. Natyurmort kompozitsiyasi chiroyli va aniq chiqishida proportsiyalarni, predmetlar aro oraliqlarni to'g'ri topish muhim.

Kompozitsiya qiziqarli chiqishida natyurmort postanovkasida ishtirok etayotgan narsalarning ranglarining va ko'lamlarining bir-biriga uygunligi zarur omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Ranglar uyg'unligi har xil kompozitsion-kolorit echimlarini topish bilan bog'liqligi yuzaga keladi. Ranglarning o'zaro bog'liqligi koloritning turli xil echimlarida bo'lishi mumkin. Masalan, bir-biriga yaqin ranglar, kontrast ranglar, sovuq yoki issiq ranglar gammasida bo'lishi mumkin. Bu holat tanlab olingan natyurmort mavzusi, mazmuni va ta'sir kuchini ko'paytirish maqsadida bo'lganligi sababi, natyurmortning tomoshabin tomonidan qabul qilinishi ta'minlanadi. Bir-biriga yaqin bo'lgan ranglar gammasi yumshoqlikni vujudga keltiradi va bu holat yoqimli va umumiy ko'rinishga ega bo'lgan ko'rinishda bo'ladi. Kontrast ranglar gammasida bajarilgan natyurmort o'zgacha qabul qilinadi va shunga mos bo'lgan kayfiyatni paydo qiladi. Misol uchun I.Kupring yaratgan «Pushti choynak bilan natyurmort» deb nomlangan asarda juda qiziqarli va noan'anaviy ko'rinishini ko'rish mumkin. Natyurmortda har xil ko'rinishdagi, ko'lamdagi, hajmdagi va ranglar jihatidan ham xilma-xil buyumlar yig'indisi ko'rsatilgan. Bu buyumlar yirik g'ijimlangan oppoq dasturxon ustida betartib sochilib turgani esa bu erdagi xilma-xillikni yanayam bo'rttirib ko'rsatib turibdi.

Ko`k rangdagi naqshinkor patnis orqaroqda suyab qo`yilgan bo`lib, bu hol o`ziga xos orqa fon rolini bajarib turibdi. Uning yon tomonlarida qora rangli shishi (butilka), oq shakardan, kompozitsiya markazida esa chiroyli pushti rang farfor choynak ko`rsatilgan. Mana shu pushti choynak markazda joylashgan bo`lib, uning yonidagi buyumlar va narsalar atrofda unga bo`ysungan holda harakatlana yotganga o`xshaydi. Oldingi plandagi mayda hajmli narsalar –mevalar, olmalar, dasturxon ustidagi pichoq, kichkina likopcha –bularning barchasi sochilib turgan holati natyurmortning mazmunini aniqlab beradi. Bu erdagi bu betartiblik, xilma-xillik, har tomonlama kontrast holatlar natyurmort asarning mazmuni va umumiy ko`rinishlarini o`ziga xosligi bilan tomoshabinda o`zgacha kayfiyatni paydo qiladi. Bunda xushchaqchaqlik va qiziqish tuyg`ulari ushbu natyurmortni tomosha qilishda darov ilg`ab olinadi va bu natyurmort asari muallifining maho`rati va ilhomidan darak beradi. Bir qarashda bu tartibsizlik, kontrast ranglar va hajmlarning bir-biri bilan hech qanday bog`liqsiz ko`rinishi tasvirlangan bu holat rassom tomonidan umumlashtirilib, mohirlik bilan chiroyli holatga keltirib, natyurmort postanovkasida ishtirok etayotgan buyum va narsalarning tasvirini yaqqol va yoqimli ko`rsatishi natyurmortning umumiy holatini juda aniq va to`liq kabul qilinishini ta`minlay olgan. Bunday o`ziga xos kontrast munosabatlarni umumiy tashkillashtirish natyurmortning qiziqarli chiqishiga yo`l qo`yadi. Yana bir ta`kidlab ketadigan jihatlardan biri bu –ushbu asarning muallifi I.Kuprinning o`ziga xos rangtasvir ishlash texnikasi va ish uslubining ko`rinishining mavjudligini ko`rsatadi.

III BOB. MILLIY BUYUMLARDAN TUZILGAN NATYURMORT TASVIRLASH

A) Milliy Natyurmort Haqida

Qoraqalpog'istonda tasviriy san'at orasida milliy natyurmort janriga ko'proq e'tibor berilgan va natyurmort asarlari orasida ushbu natyurmort turi keng tarqalgan. Bizning o'lkamiz tasviriy san'at ustalarining umuman san'at yaratuvchilari orasida milliylik, urf-odatlar, an'analari bilan bog'liq bo'lib shakllangan.

Shunga o'xshash ma'lumotlarni taniqli rassomlar: Q.Saipov, J.Izentaev, B.Serekeev, M.Ishanov, I.Jaqsibaev, A.Utegenov, A.Shpade, J.Aytimbetov, B.Tajimuratov, G.Abduraxmanova, J.Lepesov, V.Japarov, I.Jeglov, A.Erimbetov va boshqalar yaratgan natyurmortlarda ko'rsak bo'ladi.

Qidirbay Saipov yaratgan asarlarda qanday da bir sezgilarni, sokinlikni ko'rsak, Al'vina Shpade yaratgan natyurmortlar ko'pincha dekorativ natyurmort usulida ishlangan. Albatta, xar bir rassomning ko'rish, qabul qilish, ranglar berish, yorug'lik kabi uyg'unliklar o'ziga xos bo'ladi. Shuning uchun ham har bir rassomning asarlari bir-birini takrorlamayd. Qoraqalpoq natyurmort ishlash moxirlarining yaratgan ishlarining ayrimlarida to'xtab o'tsak.

Masalan: Jolibay Izentaev – taniqli rassom. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi boshlig'i, akademik, o'z ishining mohir ustasi, rangtasvir ishlarining bilimdoni hisoblanadi. Darhaqiqat, Izentaev ko'p yillar davomida ko'plab go'zal natyurmort va portretlar yaratgan. U chizgan manzara janridagi ishlari ham o'ziga xos ko'rinishlarga, ranglar uyg'unligiga egadir. Jolibay Izentaev o'z ijodi ustida ishlar ekan, doimo milliylikni, Qoraqalpog'istonning tabiati, xalq amaliy san'ati namunalari, milliy anjomlar, milliy naqshar, kiyim-kechak, o'tov (yurta) bezaklari, momolarimiz davrida urf bo'lgan mato-gazlomalar va hokazolarni o'rganib, ularning chiroyidan ilhomlanib, bir-biridan go'zal asarlar yaratgan. Qoraqalpoq milliy san'atining rivojlanishida uning qo'shgan hissasi baland, chunki u o'z asarlari bilan milliylik g'oyalarini oldinga surgan. Qoraqalpoq davlat san'at muzeyida uning yaratgan bir qator asarlari mavjud. Shulardan biri-bu

«Keli-kelsabli natyurmort» hisoblanadi. Polotnoda katta ko`lamda yog`och buyumlar bo`lmish keli va kelsab juda ta`sirli va me`yorli kompozitsiya ko`rinishida bir yigimda ko`rsatilgan. Bu erda juda qiziq ko`rinishni kuzatsa. Butun polotno bo`ylab ushbu asar muallifining texnik ishlash uslubiga xos bo`lgan kalta-kalta mazoklar qo`yilgan bo`lib, bu mazoklar natyurmortda havo-bo`shliq, yorug`lik vaziyatlarini vujudga keltirib turibdi. Go`yoki asardagi hodisa, buyumlar xavo bo`shlig`ida harakatlanayotgandek, ular «nafas olayotganday» tuyuladi. Lekin shunday ko`rinishga qaramay natyurmortdagi buyumlarning materialligini sezish mumkin. Havoda tinma «titrayotganiga» qaramay, yog`och buyumlarning qattiqligi, matolarning yumshoq va mayinligi ko`rsatilgan. Bu erda aynan shu masala ranglar orqali juda yaxshi echilgan-ushbu echim narsalarning materialligini ko`rstatishda ularning bir-birlariga nisbatlarini aniqlash, nisbatlar orqali narsalarning qattiq yoki yumshoq ko`rinishlarini berish masalasi solishtirish bo`yicha amalga oshirilgan.

J.Izentaev ko`p izlanadigan, o`z bilim va tajribasidagi yutuqlarni o`z asarlarining mazmuni va mohiyatini boyitishga sarflangan bilimdon rassom. Uning asarlari o`ziga xos ko`rinishga ega va tomoshabinlar uchun ham, talabalar uchun xam, professional darajada rivojlangan mutaxassislar uchun ham ma`lumot manbaidir. U o`z asarlarini yaratishda Frantsuz impressionis rassomlari, taniqli o`zbek rassomi Ural Tansiqboevning ijodi bilan qiziqkan holda, ulardan ilhomlanib va ta`sirlanib ishlagan. Rassom asarlarida ranglar va yorug`lik ahamiyatli o`rinda. Uning yaratgan natyurmortlarida ichki dinamizm va uyg`unlik (garmoniya) sezgilari aniq ko`zga tashlanadi. Uning 70-80 yillarda yaratgan natyurmortlari bizning mavzumizga misol bo`la oladi. Shulardan biri- «Anorli natyurmort». Bunda uncha uzoq bo`lmagan bo`shliqda, bir-biriga yaqin joylashgan narsalar, orqa planda esa kashtalar bilan naqshlar berilgan. Matolar bilan to`ldirilgan va mazkur natyurmort milliy ruhda bajarilgan. Uning natyurmortlarida narsalarni aniq ko`rsatish bilan birga ruhiy ko`tarinkilik qo`sha ko`rsatilgan. U mevalar va sabzavotlarni oddiygina chizib ko`ymasdan, balki xalq hunari namunalaridan keng foydalangan. Yana bir natyurmort bu «Qumg`onli natyurmort» bo`lib-bu asar

xam aniq tabiiy ruhda yaratilgan natyurmortning buyumlarining joylashuviva ko`lamlarining bir-biriga munosabatlari, ranglari va fakturalarining uyg'unliklari juda yaxshi o`ylab chiqilgan.

Ushbu polotnolar orqali ruhiy to`lqinlanish va quvonchli tantanalik atmosferasi vujudga keladi.

Bunday yo`sindagi natyurmortlarni boshqa rassomlarning ijodiyotida xam uchratsak bo`ladi. O`rol Tansiqboev-taniqli o`zbek rassomi. U ko`pincha peyzaj janrida ijod qilgan bo`lsa xam uning bir qator natyurmortlari kishilarning e`tiborini o`ziga xos ritmda ishlaganligi bilan o`ziga tortadi. U yaratgan «Qizil qumg`onli natyurmort» deb atalgan ishida muallif tabiiy uyg'unlikni dekorativ shakllar va ranglar orqali ko`rsatgan va bu vaziyat natyurmortni milliy ko`rinishdan mahrum qilmaydi. Qaytanga, yorqin-yorqin ranglar kishida ko`tarinkilik, quvonch tuygularini paydo qiladi.

Yana bir rassom Alvina Shpade ham natyurmort janrida ko`p ishlagan. Uning asarlarida ham milliylik, dekorativlik, tabiiy uyg'unlik kabi tuyg`ular seziladi. U yaratgan natyurmort, peyzaj, portret, mavzuviiy kartinalari kishiga dinamik, kuchlilik, ta`sirchanlik, dekorativliligi bilan o`zgacha ta`sir qiladi. O`zi yaratgan asarlariga muallif o`z tuyg`ulari, atrof-muhitga bo`lgan munosabatini ranglar orqali ko`rsatadi. «Kigizli natyurmort»- juda qiziqarli mazmundagi asar hisoblanadi. Katta kigiz ustida qumg`on, miss lagan, sopol ko`za, yog`och tovoqchada piyozlar, orqa planda esa bir bog` baliqlar tasvirlangan ushbu natyurmort o`zining mazmun jihatidan oddiyligi va samimiyligi, to`g`ri joylashtirilganligi, ularning orasidagi masofa va bir-biriga munosabatlarining aniq olinganligi bilan o`ziga tortadi. Bu erda buyumlarning ranglari, fakturalari, materialligi, yorug`lik va fazoviy ko`rinishlari juda yaxshi ishlangan. Shu bilan birga umumiy ko`rinishda, mazkur natyurmort dekorativ ko`rishga egadir. Bu borada gapiradigan bo`lsak, natyurmort kishiga ta`sir qilish bo`yicha sokinlik vash u bilan birga yuksaklik tuyg`ularni vujudga keltiradi.

B) MILLIY BUYUMLARDAN TUZILGAN NATYURMORT ISHLASHNING BOSQICHLARI

Yuqorida aytilgan fikr va misollarga asoslanib diplom ishimga ilmiy rahbarim bilan maslahatlashib tanlab olgan mavzu juda qiziqarli va ba`zi masalalar echin uchun mo`ljallangan bo`lib, uning nomi «Milliy natyurmort tuzish» deb ataladi. Uni yaratishda men mato va moybo`yoqlardan foydalandim. Bu borada tajribam unchalik katta bo`lmasa da o`z ishimga ijobiy yondashishga muvaffaq bo`ldim.

Aytib o`tish kerakki, natyurmort ishlash, ayniqsa moybo`yoqlar bilan ishlash o`ziga xos bo`lgan tajriba va qiziqchanlikni talab kiladi. Ish boshlashdan oldin maxsus matoni podramniklarga sal ho`llab turib tortish kerak. Matoning chetlarini mayda mixchalar bilan o`rnatish lozim. Odatda matoni podralenik bo`ylab tortib bo`lib, uni gruntlab chiqiladi. Men esa tayyor gruntlangan maxsus matoni qo`llanganim bois, gruntlash masalasini bir chetga surdim. Shundan so`ng esa natyurmort bo`yicha o`ylay boshladim.

Tasviriy san`at fanlarida, shular orasida rangtasvir (jivopis`) darslari natijali chiqishi uchun talabalarining o`qish kurollari bilan to`liq ta`minlanganligi, ko`rgazma qurollarining etarli bo`lishiga bog`liqligini bilamiz. Buyumlarga qarab rangli rasm chizish borasida natura sifatida qo`yiladigan buyumlar o`qituvchi tarafidan oldindan tayyorlanib qo`yiladi. Buyumlar talabalarining qobiliyatlari xamda o`qish jarayonida olgan tajribalarini hisobga olgan holda tanlanilishi lozim. Shu bilan bir qatorda natyurmort tuzishda kompozitsiya, yorug`lik-soya, narsalarning bir-biriga nisbatlari, masofalar, ranglarning mosligi va bundan tashqari, yuqorida aytib o`tilgan vaziyatlarni xam nazarda tutish kerak.

Natyurmort kompozitsiyasini yaratishda boshqa saholardagi kabi ilhom, qiziqish, mehnat va yaratuvchanlik qobiliyatlari zarur. Tasviriy san`at darslarini yaxshi o`zlashtirayotgan rangtasvir fani bo`yicha kerakli tajribaga ega bo`lgan talantli talabalarga ushbu tuzimidagi natyurmortni loyiq deb bilaman.

Shu maksadda men natyurmortimizga kundalik turmushimizda uchraydigan, odamlarga quvonch, bayram, sokinlik kayfiyatlarini ehson qiladigan narsalarni tanladim. Shu bilan birga mavzudan chetda qolmaslik uchun asosiy vaziyat bo'lmish milliylikni vujudga keltiruvchi buyumlarning natyurmortimizda «bosh rol» o'ynashini ham unutmaslikka harakat qildim.

Bular : stol ustida va orqa devorga osiltirilib tushalغان rangli naqshli kigiz, uning ustidan osiltirilib tushalغان moviy tuslik mato, orqaroqda devorga osiltirilgan kichik ko'lamli gilamcha-o'tov bezagi bo'lmish oq bosqur bo'lagi-bularning barchasi orqa fon xizmatini bajaradi. Gorizonta' tekislik, ya'ni stol (kigiz va mato ustiga) ustiga katta ko'lamdagi miss ko'za (dun), yarmi kesilgan tarvuz, tarvuz bo'lagi, ikkita pomidor, bita olma va bir bosh qora uzum qo'yilgan. Mazkur natyurmortning tuzilishida, buyumlarning tanlanishda oldindan olgan bilimlarim, tajribam va mutaxassislarning tavsiyalarini e'tiborga olgan holda yana rassomlarning asarlarida ko'rganlarimni ishda qo'llanishga harakat qildim.

Natyurmort ishlashdagi maksadimiz ushbu buyumlarning shakllarini, ranglarini o'rganish orqali ularning oddiy, tabiiy go'zalligini seza bilishdir.

Natyurmort ishlash jarayoni o'z ichiga bir kator vazifalarni oladi:

1. Proprrtsiyalarni aniqlash;
2. Buyumlarning tekislikda o'zaro joylashuvi;
3. Perspetivani to'g'ri topish;
4. Har bir buyumning yorug'lik hamda soya joylarini, ko'lamlarini aniqlash va ko'rsata bilish;
5. Buyumlarning bir-biriga solishtirmalik ranglari tuslarini toppish;
6. Buyumlarning materialligini va fakturalarini to'g'ri etkazib beprish;
7. Kompozitsiya birlashuvini to'g'ri toppish.

Mazkur vazifalarni yodda tutgan holda tuzilgan natyurmortimizni bir muddat kuzatamiz. Ba'zi vaziyatlarda natyurmort tuzilishida ishtirok etayotgan buyumlarni yaqindan ko'rishimiz, hatto qo'limiz bilan paypaslab ushlab ko'rishimiz mumkin. Bu narsa narsaning materialligini, fakturasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Natyurmort chizish uchun tanlagan joyimizga borib, toza mato sathiga

nigoh solamiz va naturaga qarab turib bo'lajak ishimizni tasavvur qilib ko'ramiz. Xayolan qanday ranglar qo'yishimizni ko'z oldimizga keltiramiz.

Natyurmortni boshlashda uning umumiy masshtabini topamiz va mato yuzasida belgilab chiqamiz. So'ngra har buyumni alohida emas, balki birgalikda bir butun kompozitsiya sifatida chala suvrat usulda ishlashimiz sababi shundaki, har biri alohida-alohida, bir-biridan bo'lak chizilgan buyumlarning rasmi ularning o'zaro bog'liqligi hamda kompozitsiya birgalikligining buzilishiga olib keladi.

Shuning uchun ham natyurmort chizishi jarayonida hamma buyumlarni solishtirish birgalikdagi ranglar berilib borilishi kerak. Natyurmortdagi buyumlar to'plamining rasmini chizganda ularning har birining orasidagi masofani ham aniq topishimiz zarur. Agarda ularning turgan joyi noto'g'ri topilgan bo'lsa, buyumlarning havoda osilib qolgan yoki bir-biriga yopishib qolganga o'xshash sezgilar paydo bo'lish xavfi bor. Bundan tashqari buyumlarning rasmini chizganda faqat tashqi ko'rinishini chizib qo'ymasdan, ularning shakli, o'lchovlari, ranglari, formalarini ko'rsatadigan xarakterli elementlarini belgilab o'tishni esda tutishimiz kerak. Buyumlarning shaxsiy soyalari, tekislikka tushadigan va shakllarini ko'rsatadigan soyalarini aniqlab olganimizdan so'ng, buyumlarning materialligini ko'rsatadigan, ranglarni qo'yishni boshlaymiz.

Natyurmort realistlik (haqqoniy) ko'rinishda chiqishi uchun asosiy yorug'lik tushadigan joylar, eng yorqin va eng qorong'i, bliklar, orqa fonlarining rangligigi o'zaro proportsional solishtirish usulida aniq tasvirlansagina maqsadga erishishimiz mumkin.

Rasm chizish jarayonida ranglarni qo'yayotib ya'ni mazoklar berayotganimizda bir predmetning soyasi bilan yarim soyani yorug' joylar bilan doimo solishtirib berishimiz kerak. Buyumlarga ranglar berayotganimizda ular turgan orqa fonlarning ham tuslarini hisobga olishimiz kerak.

To'g'ri topilgan fonlarning traktovkasi natyurmortdagi barcha buyumlarning tuslari (tonallik) echimlarining joy-joyiga qo'yilishida katta yordam beradi. Shu bilang birga naturadagi predmetlarning ranglarini qo'yganda ya'ni mazoklar berganimizda, ularni buyumlarning formasi bo'yicha qo'yilishi kerak. Agar

mazoklar duch kelgan yo`nalishda berilsa, unda natyurmortdagi buyumlarning ko`lamlik shakllari to`g`ri ko`rsatilmay qoladi va bu narsa sezilarli darajada shakllarning buzilib ko`rinishiga sabab bo`ladi. Masalan: katta ko`zaga mazoklar qo`yayotganimizda uning qornining shakli bo`ylab aylana shakldagi mazoklar qo`yganimiz ma`qul. Pomidor, olma, tarvuz-bular ham narsalarga o`xshash shakllarga ega bo`lgani uchun xudi shu yo`sinda aylana yirik, kalta mazoklar qo`yish ishlashimiz to`g`ri deb tushunaman. Natyurmort ishlashda yorug`lik reflekslar juda katta ahamiyatli rol` o`ynaydi. Bir buyumning yorug`lik tushib turgan tarafi ikkinchi buyumning soya joyiga yaqin tursa, birinchi buyumning yorug`ligi ikkinchi buyumning soya joyda aks etadi, ya`ni yorug`lik reflekslari buyumlarning ko`lamli shakllarini yanayam aniqroq ko`rsatishga imkniyat tug`diradi. Bu yo`sinda bliklar katta ahamiyatga ega, aniq joyi topilgan blik natyurmortning yanamyam ta`sirli chikishidagi o`rni ma`noli. Chunki, ular buyumning materialligini, ko`lamini ham tushib turgan yorug`likning ranglarini ancha boyitib ko`rsata oladi.

Yuqorida aytilgan barcha vazifalarni bajarib bo`lganimizdan keyin chizilgan natyurmortimizning ranglarini umumiyashtirishimiz kerak. Chunki, rasm chizish jarayonida buyumlarning detallarining har biriga alohida e`tibor berilmasa, tez-tez uchrab turadigan kamchiliklar oqitbatida ikkinchi plandagi predmetlar oldingi qatordagi buyumlar bilan aralashib turganga o`xshab qoladi. Bunday vaziyatni to`g`rilash uchun natyurmortning predmetlarini umumiyashtirib, ya`ni hamma buyumlarni bir-biriga bog`liq ko`rinishda ko`rib, orqa va oldingi plandagi narsalar nisbatini solishtirish orqali umumiy tashkillashtirishsa bo`ladi.

Natyurmort tasvirini umumiyashtirib ko`rsatib chiqqandan so`ng esa yakuniy bosqichga o`tamiz, ya`ni tuziolgan natyurmort va uning tasvirini solishtirib, proporsiya nisbatlari, buyumlarning o`lchovlari, ranglarining qovushishi, umumiy nisbatlar, alohida nisbatlar, yorug`lik soya masalalarini boshdan oyoq kuzatib, ishni yakunlaymiz.

XULO SA

Bitiruv malakaviy ishim yakunida shuni xulosa qilib aytishim mumkinki, biz kelajakda yosh avlodni ta'lim – tarbiya olishida ,tasviriy san'at orqli tabiyatga, atrof – muhitga va predmetlarga bo'lgan qarashi, tasavvuri va umumiy dunyo qarashini shakllantirishda asos bo'ladigan pedagog kadrlar bo'lib yetishib chiqmoqdamiz. Shunday ekan biz o'z sohamiz ustida bundan keyin ham ko'plab izlanishlar olib borishimiz va o'quvchilarni to'g'ri bilimlarga ega bo'lishlari uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilishimiz lozim bo'ladi. Tasviriy san'at turi bo'lmish rangtasvir bo'yicha olib borilgan natyurmort janrini asarlarida ochib berish katta ahamiyatga egadir. Ota-bobolarimiz yashab o'tgan davrlar to'g'risida o'sha davrlardan bizgacha etib kelgan buyum ko'p narsalarni «gapirib» bera oladi. Taniqli rassomlar, mo'yqalam ustalari yaratgan go'zal asarlarda chiroyli ko'rinishlar, tarixiy hodisalar, urf-odatlar, yashash tarzi, odamlarning fikrlari ifodalab kelgan. Hozirgi kunda respublikamiz bo'ylab bir kator o'zgarishlar sodir bo'layotgan davrda bu vaziyat yanamyam diqqat-e'tiborda desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'quv jarayonida yosh rassomlar naturaga qarab ishlashi tasvirni xaqqoniy va to'g'ri chizish uchun ko'plab mashqlar bajarishi zarur. Asosiy maksad atrofdagi barcha narsa va buyumlarning shakllari, ranglari, ko'lamlari, o'zaro munosabatlari, yorug'lik-soya munosabatlari, o'zaro nisbatlarini, shakllarining o'ziga xosligini aniqlashdagi o'zgachalikni o'rganish, kuzatuvchanlikni kuchaytirish, shuningdek, har xil shakl, ranglar uyg'unliklarini ko'rsata olish qobiliyatini mahkamlarini ko'rsata olish qobiliyatini mustahkamlash bo'lib hisoblanadi.

Natyurmort tuzilganda shunday jihatlarga e'tibor berishimiz maksadga muvofiqdir, chunki millatimizning o'ziga xos tomonlari aynan har xil buyumlar, hunarmandchilik mahsulotlarida juda yorqin ko'rsatiladi. Shuning uchun xam miilliy yo'sinda yaratilgan har bir ish katta mohiyatga egadir.

Natyurmort so'zi - frantsuz tilidan kelib chiqqan, o'zbek tiliga tarjima qilganda –«jonsiz tabiat» ma'nosini anglatadi. Ushbu janrda ishlagan rassomlar

mevalar, sabzovatlar, gullar, hal xil shakldagi buyumlar, kitoblar, uy jihozlari, idishlar, jonsiz hayvonlar, qushlar, baliqlar, qo`g`irochoqlar yoki ba`zi holatlarda gips haykalchalar ishtirokida tuzilgan ko`rinishlarni tasvirlashadi.

Men o`z bitiruv ishim orqali bo`lajak tasviriy san`at fani bo`yicha o`qituvchi sifatida rangtasvir bo`yicha natyurmort janrida «Milliy buyumlardan tuzilgan natyurmort» yaratishga harakat qildim. Ushbu ishim tasviriy san`at asarlarini o`rganish borasida talaba yoshlar hamda o`qituvchilarga ozroq bo`lsada qiziquvchanlik orttirsam, men o`zimning oldimga qo`ygan maqsadlarimga etgan bo`lar edim.

Mazkur ishni olib borishimda, mavzu va natyurmort tuzish uchun buyumlar tanlashimda ko`mak bergan, ishlash jarayonida paydo bo`lgan savollar, muammolarni echishda, tajriba ishlarida yuzaga kelgan ishonchsizlikni bartaraf etishda ko`p yordam bergan, o`zlarining bilim va tajribalarini, maslahatlar va tavsiyalarini ayamagan ustozlarimga, mutaxassislariga o`z minnatdorchiligimni izhor qilmoqchiman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O'zbekiston badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.
2. G.Beda. Osnovı izobrazitel'noy gramote.M., «Prosveshenie». 1969
3. R.Hasanov. Narsaning o'ziga qarab rasm chizish. T., «O'qituvchi». 1963
4. Gosmuzey iskusstv KKASSR. M., «Sovetskiy xudojnik». 1976
5. G.Lokovskaya. Obraz i tsvet. T., 1979
6. Pitkerio' qanigelik jumisi. «Miyie jemislerinen duzilgen natyurmort». Saimbetov G.N., 2006
7. B.Boymetov. Qalamtasvir.T., «Musiqqa». 2006
8. V.Tojiev. Qalamtasvir asoslarini o'rganish.T., 1994
9. Azimova V. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. T., «O'qituvchi». 1984
10. Kolyagin N.S. Prekrasnov v tsvetax politrı. «Yunıy xudojnik». M., 1983

Rangli illyustratsiyalar

Sezann. Natyurmort.



Sh. Xasanova. Natyurmort.



O'zbekstan ko'rkem o'ner akademiyasi akademigi Jollobay İzentaev

"Quman menen natyurmort"

1978-j. x/m. 93,5×97



**No'kis qa'nigelestirilgen mədəniyyət məktəbi oqıtıo`shısı xudojnik Salamat
Salimov "Milliy natyurmort".
Torshon akvarel, razmer 30×50**